

AT-TARMIZIY MAQBARASI –TARIX VA MA’NAVIYAT MASKANI

Qarshi Davlat Universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti 2-kurs talabasi

Baratova Gulzoda

Annotatsiya: At-Termiziy maqbarasi — O‘zbekistonning muqaddas va tarixiy qadamjolaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada maqbaraning barpo etilish tarixi, me’moriy tuzilishi hamda uning ma’naviy ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, buyuk alloma At-Termiziyning ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissasi va bugungi kunda ziyoratgohga qaratilayotgan e’tibor yoritib beriladi.

Kalit So‘zlari: Bug’, Lays ibn Sayyor, Xonaqoh, Balx, *sahih, hasan, g‘arib, zaif*, Logofet, Shamoyili Muhammadiyya.

Abstract: The mausoleum of At-Termizi is one of the sacred and historical monuments of Uzbekistan. Three articles discuss the history of the construction of the mausoleum, its architectural structure and its spiritual significance. The contribution of the great scholar At-Termizi to the development of science and the attention paid to the shrine today are highlighted.

Keywords: Bug, Lays ibn Sayyar, Khanaqah, Balkh, *sahih, hasan, gharib, zaif*, Logofet, Shamayili Muhammadiyya.

Аннотация: Мавзолей Ат-Термизи — один из священных и исторических памятников Узбекистана. В трех статьях рассматривается история строительства мавзолея, его архитектурная структура и духовное значение. Подчеркивается вклад великого ученого Ат-Термизи в развитие науки и внимание, уделяемое святыне сегодня.

Ключевые слова: Буг, Лейс ибн Сайяр, Ханака, Балх, *сахих, хасан, гариб, заиф*, Логофет, Шамайили Мухаммадийя

Kirish: Muhammad ibn Iso al-Termiziy (arabcha: الترمذي عيسى بن محمد), Termiziy Abu Iso, Imom Termiziy (to‘liq ismi: Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn Zaxxok Abu Iso as-Sullamiy az-Zariyir al- Bug‘iy at-Termiziy). U 209-hijriy yil (milodiy 824-yilda) Termiz yaqinidagi Bug‘qishlog‘id, (hozirgi sherobod tumani hududida) o‘rta hol oilada tug‘ilgan. At-Termiziyning oilasi va ota-onasi haqida manbalarda keltirilmagan, faqat tarixchilar uning: “Bobom asl marvlik edi, u kishi Lays ibn Sayyor zamonida yashagan, so‘ng u yerdan Termizga ko‘chib kelganlar”, degan fikrini keltirish bilan cheklanadilar. Shuningdek at-Termiziyning ko‘zi ojizligi xususida ham yozma manbalarda turli tuman ma’lumotlar keltirilgan. Ba’zi mualliflar uni tug‘ma ko‘zi ojiz desa, ko‘pchilik mualliflar olimning keyinchalik umrining oxirlarida ko‘zi ojiz bo‘lib qolganini yozadilar. At-Termiziy yoshligidan g‘oyatda

tirishqoq, idrokli va zakovatli bo'lib, bu fazilatlarini bilan o'z tengdoshlaridan batamom ajralib turgan. Uning yoshlik chog'laridan ilmga o'ta qiziqish va ishtiyoqi usha davrning ko'pgina ilmlarini ayniqsa, hadis ilmini chuqur egallashida baralla namoyon bo'ldi. U yoshlik paytlaridan boshlab Termiz, Samarqand, Marv va markaziy Osiyoning boshqa yirik shaharlarida istiqomat qilgan mashhur ulamolar va muhaddislar asarlarini qunt bilan o'rgana boshladi, keyinchalik qo'shni Balx va Xayraton shaharlaridagi ilm ahllarini bilan aloqalar o'rnatdi.

Abu Iso Muhammad at-Termiziy yoshlikdan qiziqqan Muhammadning (s.a.v.) hadislarini to'plashga qiziqqan. U o'zi o'qigan yoki biror roviydan eshitgan hadisni alohida qog'ozlarga qayd qilib, ularning asli va isnodini izchillik bilan aniqlagach hamda qayta-qayta tekshirib, to'g'riligiga to'liq ishonch hosil qilgach, ularni maxsus qog'ozlarga tartib bilan yozib borgan. Turli roviylardan eshitgan hadislarining to'g'riligiga shubha yoki ikkilanish bo'lsa, ularni ham ajratib, alohida tarzda yozib borgan. Shu tariqa hadislarining to'g'riligi va isnodi tadqiq qilinganligi asosida ular turli tabaqalarga bo'lingan. Natijada hadislar sahih (to'g'ri, ishonchli), hasan (yaxshi, ma'qul), zaif (bo'sh, ishonchsiz) va g'arib (g'alati) kabi turlarga ajratilgan.

Abu Iso Muhammad at-Termiziyning zehni o'tkirligi, xotirasi hamda quvvai hofizasi kuchliligi haqida tarixiy manbalarda ko'plab misol va rivoyatlar keltirilgan. Jumladan, arab tarixchisi Shamsuddin az-Zahabiyning Tazkirat ul-huffoz asarida quyidagi hikoya keltiriladi: Abu Iso Muhammad at-Termiziy Makkaga haj safariga ketayotganida yo'lda mashhur muhaddis olimlar bilan uchrashib, ulardan biriga hadislardan saboq berishini iltimos qiladi. Olim esa: "Unda qog'oz va qalam ol", — deydi. Ammo shu payt at-Termiziy qalam topa olmay qoladi. Shunda u olimning ro'parasida o'tirib, eshitayotgan hadislarini go'yo yozib olayotgandek, qo'lini qog'oz ustida harakatlantirib turadi. Olim turli hadislardan yetmishga yaqin hadis aytib beradi. Birozdan keyin u qog'ozga qarab, unda hech qanday yozuv yo'qligini ko'radi va at-Termiziyning bu ishidan ranjib: "Nima, sen mening vaqtimni bekorga olmoqchimisiz?" — deydi. Shunda at-Termiziy xotirjamlik bilan: "Siz aytgan hadislarini yoddan aytib beraymi?" — deb, hozirgina eshitgan barcha hadislarini birma-bir aniq takrorlab beradi. At-Termiziyning xotirasi shu qadar kuchli ekanligidan olim hayratga tushib, unga qoyil qolgan [1].

Tadqiqot Metodologiyasi: Abu Iso Termiziy hadis, tarix, fiqh kabi fanlarga oid noyob asarlar yozib qoldirgan. Uning "Sunani Termiziy" ("Ishonarli to'plam"), "Shamoyili Muhammadiyya" ("Muhammad sollallohu alayhi vasallamning surat va siyratlari") kabi o'nga yaqin asarlari bizgacha yetib kelgan. Allomaning "Shamoyili Muhammadiyya" asari esa Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam siyratlari haqida yozilgan eng muhim manba bo'lib, hozirgacha nufuzli islom oliy o'quv yurtlarining ta'lim dasturidan joy olib kelmoqda. Ushbu asar Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ning shamoyillari, fe'l-atvorlari, fazilatlarini, odob-axloqlari,

kundalik hayotlarini aks ettiruvchi to'rt yuzga yaqin hadis kiritilgan. Kitob dunyoning aksar tillariga tarjima qilingan bo'lib, unga juda ko'plab sharhlar yozilgan [2].

Imom at-Termiziy maqbarasi tarixi ayrim olimlarning fikricha taxminan XI–XII asrlarga borib taqaladi. 1905–1909 yillarda Sherobod viloyatini boshqargan Mirzo Salimbek tomonidan Imom Termiziy yodgorligida ta'mirlash ishlari olib borilgan, xususan, unga ayvon qo'shilgan. Uning ma'lumotiga ko'ra, maqbaraga tutash masjid Abdullatif Mirzo tomonidan qurilgan. 1990 yilda Abu Iso Muhammad at-Termiziy tavalludining 1200 yilligi O'zbekistonda xalqaro miqyosda nishonlandi. Shu munosabat bilan hamda 2001 yilda Termiz shahrining 2500 yilligi tadbirlari sababli Imom at-Termiziy maqbarasi va unga yondosh masjidda keng ko'lamli ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. 2016-yilda Imom at-Termiziy maqbarasi ziyoratgohini butunlay yangi ko'rinishga keltirish ishlari boshlandi. Qisqa vaqt ichida ziyoratgoh hududida 500 o'rinli masjid, kutubxona, kichik anjumanlar zali, erkaklar va ayollar uchun tahoratxonalar, oshxona majmuasi hamda besh ayvon qurildi. Umuman olganda, 1,75 gektar maydonda keng ko'lamli qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi [3].

At-Termiziy maqbarasi Hakim at-Termiziy majmuasi tarkibiga kiradi. Bu mabaradan tashqari majmuada masjid, xonaqoh, qorixona kabi binolar mavjud. Mazkur majmua yillar davomida bir necha bor qayta tiklangan. Maqbaraning sharqiy devor qismiga tutash tarzda qorixona bunyod etilgan. Shuningdek, maqbara yaqinida Hakim at-Termiziyning o'g'li al-Hakim Abdulloh maqbarasi X asrda barpo etilgan. XI-XII asrlarda esa uch gumbazli namozgoh masjid ham qurilgan. Temuriylar hukmronlik davrida (XV asr) xonaqoh bir yarim metrlik qilib pishiq g'ishtdan qayta qurilgan. Unga tutash xonalar esa qayta ta'mirlangan. Masjidning g'arbiy qismida joylashgan mehrob ayni shu davrda bunyod etilgan. Maqbarada asosiy ta'mirlash ishlari Abdullaxon hukmronlik yillari (1583—1598-yillar) amalga oshirilgan. Hovli hududida yangi to'qqiz gumbazli masjid qurilgan. Shuningdek kirish qismiga soddagina ayvon ham o'rnatilgan. Janubdan kiraverish qismiga yana bir kichik maqbara va ziyoratgoh bunyod etilgan. Shuningdek, bu maqbara ravoqli bo'lmalar orqali at-Termiziy maqbarasi va xonaqoh bilan o'zaro bog'langan. 1980—1981-yillar oralig'ida maqbara ta'mirlangan. 2001—2002-yillar davomida esa maqbara va xonaqoh qismlari to'liq qayta jihozlangan. Maqbaradagi marmar qabrtosh Termiz muzey qo'riqxonasiga ko'chirib o'tkazilgan. Uning o'rniga zamonaviy ustalar tomonidan avvalgi qabrtoshiga o'xshash bo'lgan nusxasi yasab, o'rnatilgan [4].

Majmuaning uch xonali qismi murabba shaklda bo'lib, ularning janubiy qismida go'rxona joylashgan. Bu yerda marmardan ishlangan sag'ana mavjud bo'lib, u uch pog'onali tuzilishga ega va muqarnas naqshlari hamda yozuvlar bilan bezatilgan. Go'rxonadan tor va uzun yo'lak orqali xonaqohga kiriladi. Xonaqoh pol qismi go'rxonaga nisbatan biroz pastroq joylashgan bo'lib, ular o'rtasi keng ravoq bilan

ajratilgan. Xonaqoh gumbazli bo‘lib, mehrob bilan jihozlangan. Xonaqoh yonidagi ikkita xonadan shimoli-sharqiy tarafdagi tashqi qismga chiqish imkoniyati mavjud. Xonaqoh oldida joylashgan uchta ayvon gumbaz shaklida qurilgan bo‘lib, qalqonsimon bag‘allarga ega. Devorlarida to‘rtta ravoq ishlangan, pishiq g‘ishtdan hoshiyalar bilan bezatilgan. Maqbara ganchkor bezaklar bilan nafis pardozlangan, tashqi devorlarida esa olti g‘ishtli ravoqli bezakli namoyonlar mavjud. Tobadonlarga oq ganchdan ishlangan panjaralar o‘rnatilgan. Ravoqlar g‘isht qalinligida hoshiyalangan. Maqbaraning bosh fasadini kichik ko‘shksimon gumbazli me‘moriy qurilma bezab turadi. Yodgorlik haqida ilk bor D.N. Logofet yo‘l ocherklarida ma‘lumot berilgan. 1945 yilda esa V.L. Voronina tomonidan uning me‘moriy o‘lchov ishlari bajarilgan [5].

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, Abu Iso Muhammad at-Termiziy islom ilm-fani tarixida o‘chmas iz qoldirgan buyuk olimlardan biridir. Uning hadis ilmini chuqur o‘rganishi, ularni sinchiklab tekshirishi va ilmiy tartibga solishi natijasida ishonchli manbalar yaratilgan. Imom at-Termiziy maqbarasi esa bugungi kunda nafaqat tarixiy yodgorlik, balki ma‘naviy va ilmiy ahamiyatga ega ziyoratgoh hisoblanadi. U bir necha bor ta‘miralanib, zamonaviy ko‘rinishga keltirilgan va xalqimizning ma‘naviy merosini asrab-avaylashda muhim o‘rin tutadi. Umuman olganda, Imom Termiziy merosi yosh avlodni ilmga, odob-axloqqa va diniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro‘yhati:

- 1) “Buyuk yurt allomalari” Ubaydullo Uvatov, -2018 .20-21-B
- 2) Imom Buxoriy Xalqaro Ilmiy-tadqiqot markazi, O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, “Imom Termiziy”, -2023-yil. 7-11-12-B.
- 3) Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi. “Buyuk Termiziylar, Imom Termiziy”, Ubaydullo Uvatov, Toshkent 2021. 27-29-B
- 4) F.Abduxoliqov, A.Hakimov, B.Absuhalimov, B.Bobojonov, A.Mansurov. “O‘zbekiston obidalaridagi bitiklar” Tosh-2015, 53-56-B
- 5) <https://meros.uz/object/abu-iso-termiziy-maqbarasi>